

**ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY
MEROSIGA OID CHET EL TADQIQOTLARI XUSUSIDA**

Sobira Tirkasheva,
*ToshDO‘TAU Masofaviy ta’lim
kafedrası o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosiga oid chet elda olib borilgan tadqiqotlar xususida fikr-mulohazalar berildi. Xususan, Alisher Navoiy ijodining Turkiyada o‘rganilishi, Zahiriddin Muhammad Bobur merosiga oid G‘arbiy Yevropada olib borilgan izlanishlar tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** navoiyshunoslik, boburshunoslik, turk olimlari, “Islom ensiklopediyasi”, “Chig‘atoy adabiyoti”, “Bobur ensiklopediyasi”.*

***Аннотация.** В статье приводятся мнения о проводимых за рубежом исследованиях творческого наследия Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бобура. В частности, проанализировано изучение творчества Алишера Навои в Турции и исследования, проводимые в Западной Европе относительно наследия Захириддина Мухаммада Бобура.*

***Ключевые слова:** навоийшunoslik, бабуришunoslik, Туреские учёные, “Энциклопедияси Ислама”, “Чигатойская литература”, “Энциклопедия Бобура”.*

KIRISH

Alisher Navoiy ijodi o‘zi hayotlik davridayoq dunyoga mashhur bo‘lgan. Hazrat Navoiy asarlariga qiziqish, uni o‘rganish, ilmiy merosini tahlil qilish har qaysi millat va har vaqt uchun tadqiq obyekti bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Istiqlol yillari o‘zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslik bilan bir qatorda yangi ilmiy tarmoq - boburshunoslik ham uzil-kesil shakllandi.

Alisher Navoiy ijodi o‘zi hayotlik davridayoq dunyoga mashhur bo‘lgan. Hazrat Navoiy asarlariga qiziqish, uni o‘rganish, ilmiy merosini tahlil qilish har qaysi millat va har vaqt uchun tadqiq obyekti bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Navoiy ijodi mavzu ko‘lami ma’nolar xazinasiga boyligi bilan asrlar osha o‘zining ma’naviy ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Navoiy ijodi nafaqat o‘zbek olimlari, balki turk olimlari tomonidan ham ancha mufassal o‘rganishlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. [1]

“Navoiyning ajoyib lirikasi turk shoirlariga, ularning ijodiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk mutafakkir lirikasidagi chuqur falsafiy fikrlar, inson tafakkuriga zo‘r ta’sir qila oladigan yorqin poetik obrazlar va tasviriy vositalar hammaning e’tiborini o‘ziga tortdi. Ular Navoiyning shoirlik qudratiga, uning juda katta san’atkorlik kuchiga qoyil qoldilar. A.Navoiy asarlarining turklarga g‘oyat manzur bo‘lganligini shundan ham ko‘rish mumkin”, - deb yozadi adabiyotshunos V.Garbuzova. N.S.Banarli A.Navoiy ijodini juda yuqori baholab, uning Ahmad

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Poshsho, Sulton Salim, Nodim ijodiga ta'siri to'g'risida “Rasmi turk adabiyoti” kitobida yozgan. N.S.Banarli Navoiy ijodini qadrlab shunday yozadi: “Navoiy faqat O'rta Osiyo turkiy xalqlarininggina emas butun turkiy xalqlar adabiyotimizning buyuk vakilidir” (126-bet), “Navoiy o'z davri va undan so'ng ham ijodkorlar uchun ideal bo'lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi” (127-bet). Taniqli turk adabiyotshunos olimi F.Ko'prulu 1934-yilda Istanbulda e'lon qilingan “Turk tili va adabiyoti ustida tadqiqotlar” kitobida Alisher Navoiy ijodiga batafsil to'xtalib “Alisher Navoiy va adabiy ta'siri” mavzusida alohida izlanishlarini kiritgan. Turk navoiyshunoslari orasida maqtovg'a sazovor bo'la oladigan olimlardan biri professor Kamol Eraslandir. Olimning xizmati shundan iboratki, u “Alisher Navoiyning “Nasyim ul-muhabbat min shamoyil mil futuvvat” asarining matn va til xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasini 1970-yilda himoya qilib, bu asarga qo'shimcha ravishda “Holoti Sayid Hasan Ardasher” va “Pahlavon Muhammad” risolasini ham nashr ettirdi [1].

XIX asrdayoq G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan va XX asrda rivojlanish bosqichiga kirgan boburshunoslik ilmi endi nafaqat shakllandi, hatto bu sohada “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” va “Zahiriddin Muhammad Bobur “Bibliografiya” (Moskva, 2016) singari fundamental nashrlar ham dunyo yuzini ko'rdi. Bobur tavalludining 534-yilligi tantanalarida xalqaro anjumanga qatnashgan jahonning mashhur boburshunoslari Eyji Mano (Yaponiya), Magda Maxluf (Misr), Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov (O'zbekiston), Mansura Haydar (Hindiston), Ilza Sirtautas (AQSH), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Bilol Yujel (Turkiya) boburshunoslik ilmining markazi O'zbekistonga - Toshkentga ko'chganini bir ovozdan e'tirof etdilar. Bu sohada Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi rayosati va raisi Zokirjon Mashrabovning alohida xizmatlari borligi qayd etildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Turkiya kutubxonalarida Navoiy asarlari qo'lyozmalari talaygina. To'pqopi Revan saroyi kutubxonasida saqlanayotgan Muhammad Darvesh Toqiy tomonidan Hirotda 1496-97-yillarda Navoiy hayotligidayoq ko'chirilgan qo'lyozma muhim ahamiyatga ega. Bu qo'lyozmaning fotonusxasini O'zbekistonga olib kelgan professor H.Sulaymon shunday yozgan edi: “Sulton Husayn kutubxonasining mahoratli peshqadam xattotlaridan bo'lgan Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan kulliyotning mazkur qo'lyozmasini Navoiyning o'zi ham ko'rgan bo'lishiga shubha bo'lmasligi kerak. Chunki bu qo'lyozma shoirning o'zi tuzgan kulliyot nusxasi bo'lib, unda kulliyot uchun Navoiyning o'zi yozgan so'zboshi “Munojot” bor”. Turk

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

adabiyotshunoslari Navoiydan oldin o‘tgan va unga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodini baholashda ham Navoiyning fikrlariga “Nasoyim ul-muhabbat” va “Majolis un-nafois” asarlaridagi qaydlarga suyanadilar. Xususan, shoir tavalludiga 525-yil to‘lishi munosabati bilan Istanbulda Navoiyning bir qancha asarlari chop etildi. Shu jumladan, navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levend Alisher Navoiy asarlaridan tanlangan parchalarni 4 tomlik holda nashr ettirdi. Olim Navoiy hayoti va ijodini chuqur o‘rganib, 1965-yilda “Alisher Navoiy” nomli risolasini yozdi. Ushbu risola Navoiy hayoti va ijodini boshqa bir aspektda tadqiq etish imkoni beradi. Kitob quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- O‘rta Osiyodagi vaziyat: turkiy va forsiy tillarning adabiy til sifatida tarqalishi;
- Navoiyning bolalik, yigitlik, keksalik davrlari haqida;
- Alisher Navoiyning devonlari, Jomiy va Navoiy munosabatlari;
- Navoiy “Xamsa”si xususida: nazira, javob tarjima;
- “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarning o‘zidan oldingi salaflarining asarlari bilan qiyosiy tahlili;
- Navoiy va adabiy til;
- Navoiy va Hirot;
- Navoiy va ishq;
- Navoiyning devonlari va “Xamsa” asaridan boshqa yozgan asarlari.

Ushbu kitobning kirish qismida Turkiyada Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishida dastlabki tadqiqotlar haqida so‘z boradi. Olim o‘z asarida quyidagilarni yozadi: “Navoiy tavalludining 500-yilligida buyuk shoirning Turkiyada tanilishi uchun yaxshi fursat paydo bo‘ldi. Turkiyada Navoiy haqidagi ishlanmalarga boshlang‘ich sifatida kichik tadqiqotlar chop etildi, konferensiyalar bo‘lib o‘tdi, chet tillardan tarjimalar qilindi. Shundan so‘ng chop etilgan asarlar orasida Zakiy Validiy Tog‘anning “Islom ensiklopediyasi”da chiqqan “Alisher” maqolasi, Fuad Ko‘pruluning shu ensiklopediyadan joy olgan “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasi ahamiyatli qiymatga ega. (Bu jildning oxiridagi bibliografiya bo‘limida Navoiy asarlari haqida keng ma’lumot berilgan). [1]

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta’mlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish; xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish kabi ishlar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O‘zbekistonni dunyo boburshunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi. Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma’nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya’ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek boburshunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga “butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi” deya baho berdi.

Hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari hayotlik davridayoq ma’lum va mashhur bo‘lgan. Navoiy va Bobur asarlariga qiziqish, uni o‘rganish, ilmiy merosini tahlil qilish har qanday millat va har qaysi zamonning tadqiq obyekti bo‘lgan desak adashmaymiz. Zero, Navoiy va Bobur asarlari zamonlar oshsa ham eskirmaydi. Ularning asarlari zamiriga singdirilgan ma’nolar xazinasini yildan yilga yangilanib, yosharib boradi.

References:

1. Y.RAHIMOVA. *ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIYADA O‘RGANILISHI XUSUSIDA*. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784. 3(2), Feb., 2023
2. I.RAMAZONOV. M.MAHMUDOV. *Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosining milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishidagi o‘rni*. // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2.
3. Boltaboyev H., Mahmudov M. *Adabiy-estetik tafakkur tarixi*. T.: Mumtoz so‘z, 2013.
4. Valixo‘jayev B. *Alisher Navoiy she‘riyati*. – Samarqand: SamDU nashri, 2001. – 100 b.
5. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
6. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. *Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels*. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
7. Omanova, M. (2024). *IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING*. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
8. Omanova, M. A. (2020). *Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence*. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.